

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONGA YANGI HARBIY QUROL – YAROG'LARNING KIRIB KELISHI TARIXI.

(arxiv manbalari asosida)

Elova Dilnoza Davlatovna

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Anotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston mintaqasiga kirib kelgan harbiy texnikalar, ularning tarqatilishi masalalari O'zbekiston Milliy Arxivi hujjatlari asosida ilmiy jihatdan tadqiq qilingan.

Резюме: В данной статье на основе документов Национального архива Узбекистана научно исследуется военная техника, поступившая в Туркестанскую область в конце 19-начале 20 века, и вопросы их распределения.

Resume: In this article, military equipment that entered the Turkestan region at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, and the issues of their distribution, are scientifically researched based on the documents of the National Archive of Uzbekistan.

Tayanch atamalar: miltiq, to'pponcha, o'q-dori, patron, nagan, revolver, to'p, pulemyot, harbiy okrug, armiya, qo'shin, samolyot, polismeystr, uchastka pristavi, general-gubernator, do'kon, ombor.

Ключевые слова: винтовка, пистолет, боеприпасы, патрон, ружье, револьвер, пушка, пулемет, военный округ, армия, войско, самолет, урядник, урядник, генерал-губернатор, магазин, склад.

Key terms: rifle, pistol, ammunition, cartridge, gun, revolver, cannon, machine gun, military district, army, troop, aircraft, constable, constable, governor-general, store, warehouse.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonga qishloq xo'jaligi, sanoat va maishiy xizmat ko'rsatish yangi texnikalari bilan birga harbiy sohada qurol-yarog' va o'q-dorilarning zamonaviy turlari ham kirib keldi. Harbiy sohadagi yangiliklar yuz berishiga Turkiston harbiy okrugi soldat va zobitlarini zamonaviy qurollar bilan qurollantirish, o'lkada ma'muriy – harbiy boshqaruvni mustahkamlash maqsadida polismeystr, uchastka pristavi, uezd boshliqlarini o'q otar qurollar va patronlar bilan ta'inlash,

ko'chirilgan aholiga o'zini himoya qilish va qo'zg'olonlarni bostirishda foydalanish kabi ko'pdan-ko'p omillar turtki bo'lgandi.

O'zbekiston Milliy Arxivi fondlaridagi ma'lumotlar tahlil qilinar ekan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi bo'ylab o'z zamonasining ilg'or harbiy texnikasi hisoblangan o'q otar qurollardan Berdanka – 5, Venchestr – 3, ortidan o'qlanadigan boshqa turdagi miltiqlar, nagan, revolver markali to'pponchalar, bronetank, brone poezd yerda o'rmalovchi zirhli mashinalar, “maksimka” lenta o'qli pulemyot, otlar orqali bir joydan ikkinchi joyga ko'chiriladigan yengil, snaryad otadigan to'plar, sochma o'q otadigan kalta smvolli miltiq kabilar kirib kelganligiga amin bo'lamiz. XX asr boshlarida bitta uchuvchi bilan parvoz qiladigan harbiy samolyotlar ham paydo bo'lganligi, ulardan harbiy to'qnashuvlarda foydalanilganligi haqida manbalarda ma'lumotlar keltirilganligi muhimdir.

Yangi harbiy texnikalar avvalo imperiya hukumati tomonidan o'lkaga keltirildi.

Marg'ilon uyezdi boshlig'i 1905-yil 16-dekabrda Farg'ona viloyati harbiy gubernatoriga yo'llagan bildirgisida: “Aravon uchastka pristavi orqali rus qishloqlaridagi dehqonlarga va nazoratchilarga besh otar (Berdanka – 5), Venchestr – 3 markali miltiqlar va ularning 2 yashik (2300 ta) patron o'qini tarqatganligini xabar qiladi. Bundan tashqari Moskva qurol zavodidan keltirilgan yangi ov qurollari olib kelib tarqatilganligi ham xabar qilingan.⁵⁹ Ushbu qurol va o'q-dorilar ko'chirilganlarni o'z-o'zini hamda yovvoyi hayvonlardan himoya qilish uchun ekanligi uezd boshlig'i tomonidan qayd etilsada, aslida bu tadbir asosida boshqa harbiy-strategik maqsad ham yotganligi ayon bo'ladi. O'lkadagi slavyan aholiga yangi miltiqlar bilan muomala qilish, o'q-doridan foydalanish qonun-qoidalari haqida ko'rsatma(instruksiya) lar ham berilgan. “Berdanka – 5”, “Venchestr – 3” miltiqlarining 1 dona patroni o'sha davr puli bilan 1 rub. 01 kop tursa, ov miltiqlari patroni 0,50-055 kop. edi. Patronlarning xarajatlari uezd xazinasidan qoplangan.⁶⁰

Nafaqat ko'chirilgan aholi va harbiy qismlarga, qolaversa, uchastka qo'riqlash pristavlari hamda polismeystrlarga, maxsus harbiy idoralariga Rossiyaning Tula davlat qurol-yarog' zavodida ishlab chiqarilgan revolver, nagan va turli markadagi miltiqlar, patronlar tarqatilgan. Toshkentda

⁵⁹ ЎзМА, U-19-фонд, 1-рўйхат, 9758 йиғма жилд, 10 – varaқ.

⁶⁰ ЎзМА, U-461-фонд, 1-рўйхат, 1812 йиғма жилд, 4-varaқ.

artilleriya (to'p) va qurol-yarog' omborxonasi tashkil etilib (1898 yilda) ushbu omborxonada dragun namunasidan miltiqlar ko'p miqdorda bo'lgan.⁶¹ Namangan uyezdi boshlig'i (Farg'ona viloyati) 1914-yil 28-mayda Farg'ona harbiy gubernatoriga xabar qilib, YAngi Qo'rg'on va CHust uchastkalarini qo'riqlash qismlariga 15 ta dragun namunasidagi miltiq berganligi qayd etilgan.⁶² Mazkur xat orqali ushbu miltiqlarga patron (o'q-dori), o'ch otar vintovka (venchestr) berish ham so'ralgan xatlardan birida. 1914-yili Toshkent artilleriya va o'q-dori zavodidan polisiya uchun 5000 ta, hech bo'lmaganda 2500 ta patron so'ralgan, 1914-yil aprelda Andijon uезд boshlig'iga Tula zavodida ishlab chiqarilgan 20 ta revolver, "Nagan" va 5000 ta patron yuborildi.⁶³

Yangi turdagi harbiy texnikani o'lkaga kirib kelishida hukumatning harbiy vazirlikdagi vakillari, vakolat berilgan tashkilotlardan tashqari boshqa vositalar bilan ham harakatlar bo'lgan. Xorijga turli maqsadlarda chiqqan ayrim kishilar chet ellardan yashirin yo'llar bilan Turkistonga harbiy qurol-yarog'larni olib kelganligi manbalardan o'rin olgan. 1904-1905 yillardagi rus-yapon urushidan keyin Kaspiyorti viloyatidan ko'p sonli turkmanlar turli maqsadlarda (savdo-sotiq, sayohat, haj ziyorati va hokazo) SHarq davlatlari bo'ylab safarga chiqqanlar. Ulardan Yaponiyaga borganlari bu davlatda uch otar zamonaviy miltiqlarni katta guruhda sotib olishgan. Turkman vakillari ko'p yashiklarda patron, beshtacha pulemyot xarid qilinib Kaspiyorti viloyatiga quruqlik va suv yo'llari bilan yetib kelingan.⁶⁴ Turkiston muhofaza bo'limi (Oxranka) ning maxfiy xabariga ko'ra 1916-yilda Kaspiyorti viloyatida Afg'oniston, Eron davlatlari orqali o'tkazilgan ingliz va hind qurollaridan iborat yashirin omborxonalar bo'lgan.⁶ O'tkir uchuvchan, yangi patronlar olib kelingan. Yangi turdagi miltiqlar bilan yashirin savdo qiladigan shaxslar paydo bo'lib Marvda M.Haydarov savdo idorasi xizmatchisi Og'aboy turkmanlarga jangovor miltiqlarning 1000 talab 30 rublda pullagan⁶⁵ - degan ma'lumot keltiriladi, arxiv hujjatida. Keyinchalik, sovet hukumati yillarida (1917-1920 yillar) turkman sardorlari zamonaviy qurollangan harbiy otryadlari bilan sovet vakillarini Amudaryodan suzib, Afg'onistonga o'tish suv yo'lini kesib

⁶¹ ЎзМА, U-461-фонд, 1-рўйхат, 1812 йиғма жилд, 60,61,62 – варақлар

⁶² ЎзМА, U-19-фонд, 1-рўйхат, 9758 йиғма жилд, 10,11,13 – варақлар.

⁶³ ЎзМА, U-19-фонд, 1-рўйхат, 9758 йиғма жилд, 10,11,13 – варақлар.

⁶⁴ ЎзМА, U-461-фонд, 1-рўйхат, 1812 йиғма жилд, 60,61,62 – варақлар.

⁶⁵ ЎзМА, U-461-фонд, 1-рўйхат, 1812 йиғма жилд, 41-варақ.

qo'ygandi va Qizil Armiya kemalarini o'z hududlaridan qo'shni davlatga suzib o'tishlariga yo'l bermagandi.

Turkistonga kiritilgan harbiy texnikalar o'lkada faoliyat yuritayotgan maishiy xizmat ko'rsatish texnikalari sotiladigan do'kon va magazinlar orqali ham yashirin ravishda sotilgan. Ushbu fikrimizni arxiv hujjatlari tasdiqlaydi. Grammafona va gramplastinkalar sotadigan magazin egalari P.I.Kosenovna, I.M.Sarev 1912-yilda o'z magazinlarida revolver, nagan va miltiqlarni, porox, o'q-dorilarni yashirin holda sotganliklari uchun 50 rubldan 100 rublgacha jarimaga tortilishgan. Hatto, ularga 6 sutkagacha qamoq jazosi belgilanib, o'zlaridan 2 ta revolvorni ro'yxatdan o'tkazmay saqlaganliklariga qo'shimcha 25 rubldan jarima to'lashgan.⁶⁶ Ayrim o'lkada faoliyat yuritgan aksionerlik jamiyatlari xizmatchilari ham yevropa va Rossiyadan keltirilgan qurol-yarog'larni, patronlarni yashirin mijozlarga sotgan. Miltiq va to'pponchalar narxi 25 rubldan 50 rublgacha bo'lgan. Gergard va Tey jamiyati xodimlari 1915-yilda o'z do'konlarida Germaniya, Yaponiya, Angliyadan keltirilgan qurol-yarog' (miltiq va to'pponcha), o'q-dori va snaryadlarni sotishganini manbalar tasdiqlaydi.⁶⁷

Ta'kidlash joizki, Rossiya imperiyasi va muvasat burjua hukumati davrlari tugaganidan so'ng, o'lkaga o'q otar qurollar hamda ularning o'q-dorilarini kirib kelish jarayoni davom etdi. 1920-1923 yillarda Turkiston ASSR, BXSr, XXSR dagi harbiy vaziyat tufayli Qizil Armiya qismlari bilan Milliy vatanparvar kuchlar o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlar davrida o'lkaga turli markadagi harbiy samolyotlar kirib keldi. Ozodlik uchun kurashuvchilar orasida ham qurol-yarog' tarqatildi. Ayniqsa, yuqorida ko'rsatilgan yillarda Qashqadaryo vohasiga ko'p miqdorda yapon vintovkalari keltirilgan. Uni xalq orasida tarqatishda BXSr ning ayrim hukumat a'zolari ham ishtirok etgan.

Uni xalq orasida tarqatishda Qarshi soliq idorasi rahbari Nuriddin og'aliq Eshon Ahmadxonov tashkilotchilardan biri bo'lgan. Uni "aksinqilobchi" sifatida ayblab otilishida ushbu harakatlari ham inobatga olingan, shuningdek, "bosmachi" to'dalari qo'liga qurol bergan islom dini ulamolari ham ta'qib ostiga olingan.⁶⁸

⁶⁶ ЎзМА, U-17-фонд, 1-руйхат, 16998 йиғма жилд, 78,79,80 – varaqlar.

⁶⁷ ЎзМА, U-461-фонд, 1-руйхат, 1496 йиғма жилд, 81-varaqlar.

⁶⁸ ЎзМА, P-50-фонд, 1-руйхат, 255-йиғма жилд, 192 varaqlar, Tarixning nomajlum sahifalari (IX kitob). –T.: Akadem nashr, 2020.. –B.212. Muallifning turkiyalik Ўzbek Sobir Soiyxonli bilan mulokoti, 2018 йил 15 avgust (1931 йилда tufigan).

1917-1924 yillarda Turkistondagi murakkab harbiy-siyosiy vaziyat tufayli hukumat idoralarining xodimlari, hukumatga tegishli bo'lgan tajriba stansiyalari kabilar ham qurol-yarog' bilan ta'minlangan. Tadqiqot orqali amin bo'lindiki, bu kabi muassasalar ixtiyoriga ham zamonaviy qurol-yarog'lar berilgan.

Buxoro shahri yaqinida 20-25 desyatina yer maydoniga ega bo'lgan Shirbudin qishloq xo'jalik stansiyasi ixtiyoriga 4 dona uchotar Vinchestr, 1 dona Berdanka miltig'i, 20 dona revolver berilib, ular uchun uch otar miltiqqa 321 dona, Berdankaga 32 dona, revolver uchun 17 dona patronlar ham topshirilgan.⁶⁹

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Milliy Arxivi, U-19-fond, 1-ro'yxat, 9758 yig'ma jild, 10 – varaq.
2. O'zbekiston Milliy Arxivi, 1-ro'yxat, 1812 yig'ma jild, 4-varaq.
3. O'zbekiston Milliy Arxivi, U-461-fond, 1-ro'yxat, 1812 yig'ma jild, 60,61,62 – varaqlar
4. O'zbekiston Milliy Arxivi, U-19-fond, 1-ro'yxat, 9758 yig'ma jild, 10,11,13 – varaqlar.
5. O'zbekiston Milliy Arxivi, U-19-fond, 1-ro'yxat, 9758 yig'ma jild, 10,11,13 – varaqlar.
6. O'zbekiston Milliy Arxivi, U-461-fond, 1-ro'yxat, 1812 yig'ma jild, 60,61,62 – varaqlar.
7. O'zbekiston Milliy Arxivi, U-461-fond, 1-ro'yxat, 1812 yig'ma jild, 41-varaq.
8. O'zbekiston Milliy Arxivi, U-17-fond, 1-ro'yxat, 16998 yig'ma jild, 78,79,80 – varaqlar.
9. O'zbekiston Milliy Arxivi, U-461-fond, 1-ro'yxat, 1496 yig'ma jild, 81-varaq.
10. O'zbekiston Milliy Arxivi, R-50-fond, 1-ro'yxat, 255-yig'ma jild, 192 varaq,
11. Tarixning noma'lum sahifalari (IX kitob). –T.: Akadem nashr, 2020.. –B.212. Muallifning turkiyalik o'zbek Sobir Soiyhonli bilan muloqoti, 2018 yil 15 avgust (1931 yilda tug'ilgan).
12. O'zbekiston Milliy Arxivi, R-48-fond, 1-ro'yxat, 267-yig'ma jild, 116-varaq

⁶⁹ Р-48-фонд, 1-рўйхат, 267-йиғма жилд, 116-варак